**"TASDIQLAYMAN"**
**"O'zsanoatqurilishbank" ATB**
**Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari**
**__________ A. Ergashev**
**"26" "04" 2024 y.**

## Inson kapitalini rivojlantirish loyihasi bo'yicha o'quv kursi xizmati

### TEXNIK TOPSHIRIQ

| № | Nomi | Talab |
|---|---|---|
| 1 | **Mijoz** | ATB "O'zsanoatqurilishbank" |
| 2 | **Xizmat nomi** | Bank xodimlarini "Inson kapitalini rivojlantirish loyihasi o'quv kursi" bo'yicha o'qitish |
| 3 | **Ishtirokchilar soni** | 700 nafar xodim |
| 4 | **Xizmat spesifikatsiyasiga qo'yilgan talablar** | **Talablar:**<br>Xalqaro malaka oshirish kurslarini ta'lim jarayonlari zamonaviy ta'lim standartlari va xalqaro andozalar asosida olib borish:<br>- har bir dars mashg'ulotlari ilg'or ta'lim uslublari va AKTdan foydalangan holda olib borilishi;<br>- ta'lim jarayonlari xalqaro darajadagi bilim va ko'nikmaga (xorijiy davlatlarda ta'lim olgan va malaka oshirgan) hamda nazariy va amaliy tajribaga ega mutaxassislar tomonidan olib borilishi;<br>- ta'lim jarayonlari O'zbekistonda foydalanish imkonini beradigan eng so'nggi tahliliy ma'lumotlar, prognozlar asosida olib borilishi;<br>- zaruratdan kelib chiqib, dars mashg'ulotini olib boradigan mutaxassis o'zbek, rus va ingliz tillarida ham qo'shimcha ma'lumot bera olishi.<br>- dars mashg'ulotlari o'z vaqtida boshlanishi va tugashi, shuningdek ta'lim beruvchilar va oluvchilarning ham kechikmasligini ta'minlash.<br>Xalqaro malaka oshirish kurslarini ta'lim jarayonlarining quyidagi texnik talablari asosida tashkil etish va olib borish:<br>- ta'lim oluvchilar sonining har bir guruhda 10-15 nafardan oshmasligi;<br>- auditoriyada har bir ta'lim oluvchiga ajratiladigan joy maydoni 2,2 m2dan kam bo'lmasligi;<br>- har bir ta'lim oluvchi ta'lim olish jarayonida foydalanish uchun kompyuter bilan ta'minlanishi;<br>- auditoriyalarning yorug'ligi, issiqligi, salqinligi, tinchligi hamda o'qituvchining ovozini yetarli darajada eshitilishi ta'minlanishi;<br>- mashg'ulot shaklidan kelib chiqib (ma'ruza, trening yoki simulyatsion) auditoriyalarning kerakli jihozlar, kanstovarlar va texnik vositalar bilan ta'minlash, shuningdek mayda guruhlarda ishlash uchun qo'shimcha shart- sharoitlar yaratilishi.<br>Xalqaro malaka oshirish kurslari ishtirokchilarining bo'sh vaqtini samarali o'tkazishi va jismoniy salomatligi yaxshilash bo'yicha quyidagi imkoniyatlar taklif etiladi: |

| | | |
|---|---|---|
| | | - birlamchi ehtiyojlar qondilishi (ichimlik suvi, kofe, choy, hojatxona, maxsus dam olish joylarini bilan ta'minlash. Bunda ta'lim muassasasi hududida chekish va alkogol ichimliklar iste'moli, shuningdek dars mashg'ulotlarida ham bunday holatlarda qatnashish qat'iyan man etilishi inobatga olinishi;<br>- nonushta va tushlik uchun oshxonadan foydalanish;<br>-sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanish imkoniyatini yaratilishi (basseyn, mashqlar zali (trenajyorнын zal), futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, katta tennis va boshqa).<br>- kutubxonadan foydalanish.<br>**Shuningdek, Xizmat spesifikatsiyasiga qo'yilgan qo'shimcha talablar mazkur texnik shartning ilovasida keltirilgan** |
| **5** | **Ishtirokchiga qo'yiladigan talablar va taqdim etilish kerak bo'lgan ma'lumotlar.** | **Taqdim etilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar:**<br>- Ta'lim tizimida faoliyat olib borish huquqini beruvchi litsenziya;<br>- Kurs o'tagan xodimlarning Xorijiy davlatlarda amalayot o'tash imkoniyatining mavjudligi (xorijiy mamlakatlar tashkilotlari bilan tuzilgan kelishuvlar, memorandum, shartnoma va h.k)<br>- O'xshash xizmatlar bo'yicha ish tajribasi mavjudligi;<br>- Kurs davomida xodimlarni o'zlashtirish jarayonini elektron baholash tizimining mavjudligi hamda ushbu jarayonni bevosita Bank tomonidan kuzatib borish imkoniyati. |
| **6** | **Qo'shimcha shartlar** | **Tanlash savdolarida g'olib deb topilgan shaxs 3 kun muddat ichida Xizmat spesifikatsiyasiga qo'yilgan talablar asosida "Inson kapitalini rivojlantirish loyihasi bo'yicha o'quv kursi" (o'quv rejasi, ta'lim olish shart sharoitlari, chet davlatlarda amaliyot o'tash imkoniyatlari va h.k) bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv kursi dasturini buyurtmachiga taqdimotini ko'rsatishi lozim. Mazkur talabni bajarmaslik tanlash natijasi bekor qilinishiga sabab bo'ladi.** |
| **6** | **Yetkazib berish muddati** | Shartnoma tuzilgandan so'ng bir yil davomida |
| **7** | **To'lov shartlari** | Bo'nak to'lovi mavjud emas. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma tomonlar o'rtasida imzolanganidan so'ng, ijrochiga tanlash predmeti bo'yicha buyurtmachida asosli e'tirozlar bo'lmasa 100 fozi to'lov 15 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi |

**Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti direktori v.v.b.** **A.Orifjonov**

**Texnik shartga ilova**

## Xizmat spesifikatsiyasiga qo'yilgan talablar

| № | Kurs mavzusi | Davomiyligi | Guruh soni | Xorijiy davlatlarda amaliyot |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Professional loyiha boshqaruvi (10-11 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | (80 nafar - 8 ta guruh) | Germaniya (15 kishi) |
| 2. | Moliyaviy yutuq: Bank mahsulotlarini muvaffaqiyatli sotish jarayonida muhim bo'lgan marketing sirlari (15-16 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | (200 nafar - 13 ta guruh) | Singapur (20 kishi) |
| 3. | Boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish (liderlik ko'nikmalari, qaror qabul qilish, vazifalarni taqsimlash, shaxsiy samaradorlik) (16-17 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | (50 nafar - 3 ta guruh) | |
| 4. | Biznes tahlil (10-12 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | (70 nafar - 7 ta guruh) | Janubiy Koreya (15 kishi) |
| 5. | Banklarda komplaens tizimi (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | (10 nafar - 1 ta guruh) | Angliya (15 kishi) |
| 6. | O'zbekiston banklarida dolzarb komplaens risklar (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (15 soat) | (50 nafar - 5 ta guruh) | Angliya (15 kishi) |
| 7. | Banklarda inson resurslarini boshqarish (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | (10 nafar - 1 ta guruh) | Yaponiya (10 kishi) |
| 8. | Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari (10 nafar – 1 ta guruh) | 2 hafta (55 soat) | (30 nafar - 3 ta guruh) | Dubay, BAA (15 kishi) |
| 9. | Moliyaviy modellashtirish (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | (40 nafar - 4 ta guruh) | |
| 10. | Risk menejment va risk madaniyati (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 hafta (40 soat) | (70 nafar - 7 ta guruh) | (O'quv tashkilotining sertifikati bilan) |
| 11. | Yashil banking (Green Banking) (10 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | (20 nafar - 2 ta guruh) | - |
| 12. | Administrirovanie PostgreSQL 13 | 1 hafta (40 soat) | (10 nafar - 1 ta guruh) | - |
| 13. | CFA Birinchi daraja (14 nafar – 1 ta guruh) | 10 hafta (380 soat) | (14 nafar - 1 ta guruh) | - |
| 14. | FRM (1-qism) (10 nafar – 1 ta guruh) | 7 hafta (250 soat) | (10 nafar - 1 ta guruh) | - |
| 15. | FRM (2-qism) (10 nafar – 1 ta guruh) | 7 hafta (265 soat) | (10 nafar - 1 ta guruh) | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **16.** | F3 (Moliyaviy hisob)<br>(10 nafar – 1 ta guruh) | 2 hafta (72 soat) | (10 nafar -<br>1 ta guruh) | - |
| **17.** | F7 (Moliyaviy hisobot)<br>(10 nafar – 1 ta guruh) | 2 hafta (75 soat) | (10 nafar -<br>1 ta guruh) | |
| **18.** | F9 (Moliyaviy menejment)<br>(10 nafar – 1 ta guruh) | 2 hafta (75 soat) | (10 nafar -<br>1 ta guruh) | |
| **19.** | Tanqidiy fikrlash<br>(10 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | (10 nafar -<br>1 ta guruh) | |
| **20.** | Shaxsiy samaradorlik<br>(10 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | (20 nafar -<br>2 ta guruh) | |
| **21.** | Kommunikatsiya<br>(16 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | (160 nafar -<br>10 ta guruh) | |
| **22.** | Raqamli intellekt<br>(10 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | (10 nafar -<br>1 ta guruh) | |
| **23.** | Taqdimot qilish ko'nikmalari<br>(13 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | (20 nafar -<br>2 ta guruh) | |
| **24.** | Biznes muloqotlar olib borish ko'nikmalari<br>(10 nafar – 1 ta guruh) | 1 kun (6 soat) | (10 nafar -<br>1 ta guruh) | |
| | **JAMI** | | **700 nafar**<br>ixtisoslik va yumshoq ko'nikmalar kurslari | |

*** - har bir o'quv kursi bo'yicha ta'lim tashkiloti tomonidan har bir xodimga kursni tamomlagani yuzasidan sertifikat taqdim etilishi kerak.